XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

150200, Oltiariq t., Mustaqillik k., 90-uy, tel: (73) 432-06-93

2022 - yil 30 - dekabr VI-53-188-11-151-K/22 Oltiariq tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “ Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, Oltiariq tumanidagi ko'chalarga nom berish va davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, viloyat hokimining 2020-yil 14-noyabrdagi 304-qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirilmoqda, ya’ni tumandagi mavjud ko'chalar Kadastr agentligining Oltiariq tuman bo‘limi bilan tahliliy o‘rganilmoqda. Ko'chalar nomini milliy g‘oyamiz va mafkuramiz talablari asosida qayta nomlash, jumladan ko'chalarning qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan geografik ob’yektlarni nomlash to‘g‘risida takliflar bildirildi. Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori hamda Oltiariq tuman hokimi maslahatchisi M.Axmedovning 1892-sonli xati va ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Oltiariq tumanidagi ko'chalarga nom berilishi borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov

axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati Oltiariq tuman bo‘yicha nomi Davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lmagan ko'chalar ilovaga asosan Davlat reyestriga kiritilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi (U.Qodirova) hamda tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

4. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Халқ депутатлари Олтиарик тумани кенгаши раиси **Ш.Турдалиев**

Xalq deputatlari Oltiariq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-53-188-11-151-K/22-son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik ob'ektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik ob'ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	Tor ko'cha	Yangihayot mfy	Nomsiz ko'cha	Muborak-1
2	Tor ko'cha	Yangihayot mfy	Nomsiz ko'cha	Muborak-2
3	Tor ko'cha	Yangihayot mfy	Nomsiz ko'cha	Muborak-3
4	Tor ko'cha	Yangihayot mfy	Nomsiz ko'cha	Muborak-4
5	Tor ko'cha	Yangihayot mfy	Nomsiz ko'cha	Muborak-5
6	Ko'cha	Tinchlik mfy	Nomsiz ko'cha	Nixol
7	Ko'cha	Yangiturmush mfy	Nomsiz ko'cha	Bog'ieram
8	Ko'cha	Yangiturmush mfy	Nomsiz ko'cha	Ijodkor
9	Ko'cha	Yangiturmush mfy	Nomsiz ko'cha	Qo'rg'onariq
10	Ko'cha	Ustoz mfy	Nomsiz ko'cha	Matonat
11	Ko'cha	Qapchug'ay mfy	Nomsiz ko'chasi (ko'p qavvatli uylar)	O'zbekiston 30 yilligi, (Mustaqillikning 30 yilligi)
12	Ko'cha	SHarq mfy	Do'stlik	Polosonobod
13	Ko'cha	SHarq mfy	Nomsiz ko'cha	SHarq yulduzi
14	Ko'cha	Poloson mfy	Nomsiz ko'cha	Taraqqiyot sari
15	Ko'cha	IbnSino mfy	Nomsiz ko'cha	Yangi avlod
16	Ko'cha	Ko'lbo'yi mfy	Nomsiz ko'cha	Beglar
17	Ko'cha	SHarq mfy	Nomsiz ko'chasi (ko'p qavvatli uylar)	SHarq tongi
18	Ko'cha	Maorif mfy	Nomsiz ko'cha	Yangiturmush
19	Ko'cha	G'ayrat mfy	Nomsiz ko'cha	Bo'ritepa
20	Ko'cha	Usmonobod mfy	Nomsiz ko'cha	Lolazor
21	Ko'cha	Jarqo'rg'on mfy	Nomsiz ko'cha	Bexizor
22	Ko'cha	CHordara mfy	Nomsiz ko'cha	Hamjixat (Hamjixatlik)
23	Ko'cha	Zilol mfy	Nomsiz ko'cha	Dasht (Dashtobod)
24	Ko'cha	Zilol mfy	Nomsiz ko'cha	Bog'ishamol
25	Ko'cha	O'zbekiston mfy	Nomsiz ko'cha	Maqsud SHayxzoda
26	Ko'cha	Jarqo'rg'on mfy	Nomsiz ko'chasi (ko'p qavvatli uylar)	Yangi O‘zbekiston
27	Tor ko'cha	Mirfozil mfy	Nomsiz ko'cha	Mirfoziltor